# PUDRAT SHARTNOMASI

18«11»2022 yil. **219-11-153-MT/2022-son**

Ikki tomonlama xo'jalik munosabatlarini ifodalovchi mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligi hamda o'z Nizomiga asosan faoliyat yurituvchi **Beshariq tumani maktabgacha ta'lim bo'limi** nomidan raxbar **Sh.Baratalieva** (kelgusida «Buyurtmachi» deb ataladi) birinchi tomondan va o'z Nizomi asosida ish yurituvchi **«Beshariq Ideal» x/k** (keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb ataladi) nomidan rahbar **A.Otaxonov** ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagi ishlarni bajarish uchun tuzdilar:

## 1. ShARTNOMA PRYeDMYeTI.

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga asosan: Beshariq tumani Novkat qishlog'ida joylashgan 40-MTT binosini joriy ta'mirlash ishlarini loyixa-smeta xujjatlarida nazarda tutilgan tartibda bajarish majburiyatini oladi, «Buyurtmachi» esa bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib olib, to'lovlarni amalga oshiradi.

## 2. ShARTNOMA BAXOSI.

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Pudratchi» tomonidan bajariladigan ta'mirlash ishlari qiymati loyixa-smeta xujjatlariga asosan barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda jami **250,000,000** ***(Ikki yuz ellik million)so'm*** QQS bilan so'mni tashkil etadi

2.2. Zaruriy asoslar mavjud bo'lganda «Buyurtmachi» va «Pudratchi»ning kelishuviga asosan mazkur shartnomaga qushimcha bitim rasmiylashtirilishi mumkin.

## 3. XISOB-KITOB QILISh TARTIBI

3.2. «Buyurtmachi» oldindan shartnoma umumiy summasini **30 %** miqdorida avans to'lovini «Pudratchi» xisob raqamiga o'tkazib beradi. Keyingi xisob-kitoblar xaqiqatda bajarilgan ishlar xajmiga qarab, avans mablag'larini xisobga olgan xolda amalga oshiriladi.

## 4. IShLARNI BAJARISh TARTIBI VA MUDDATLARI.

4.1. «Buyurtmachi» tomonidan oldindan tulov amalga oshirilgan kundan boshlab 5 kun muddat ichida «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari boshlanishi shart. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar 2022 yil 25 dekabr kuniga kadar to'liq yakunlanishi kerak.

4.2. «Pudratchi» bajariladigan ishlarni amaldagi qurilish qoidalari va me'yorlari talablariga muvofiq bo'lishini va sifatli bajarilishini ta'minlaydi.

4.3. «Pudratchi» ishlarning bajarilishini texnika xavfsizligi, mexnat muxofazasi va yongin xavfsizligi talablariga rioya qilgan xolda amalga oshiradi.

## 5. TOMONLARNI HUQUQ VA MAJBURIYaTLARI.

5.1. «Pudratchi» mazkur shartnomada nazarda tutilgan ta'mirlash ishlarini tuliq xajmda va belgilangan muddatlarda bajarish majburiyatini oladi.

5.2. «Buyurtmachi» ta'mirlash ishlari jarayonida bajarilayotgan ishlarni loyixa-smeta xujjatlariga mosligini va sifatini nazorat qilib boradi.

5.3. «Buyurtmachi» tomonidan «Pudratchi»ga ta'mirlash ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi va bajarilgan ishlar buyicha tuzilgan Shakl-2 dalolatnomalarini qabul qilib oladi.

5.4. Bajarilgan ishlarda kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda, «Buyurtmachi» tomonidan dalolatnoma rasmiylashtiriladi va <u>10</u> kun muddatda «Pudratchi»ga xabar yuboriladi. «Pudratchi» tomonidan ushbu aniqlangan kamchilik va nuqsonlar o'z mablag'i va o'z kuchi bilan <u>10</u> kun davomida bartaraf etiladi.

## 6. JARIMALARNI QO'LLANILISh.

6.1. Tomonlardan biri shartnoma shartlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to'liq qoplaydi.

6.2. Agar «Pudratchi» tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ta'mirlash belgilangan muddatlarida boshlanmasa va yakunlanmasa, «Pudratchi» bajarilmagan ishlar qiymatini 0.5% miqdorida har bir muddati o'tgan kuni uchun «Buyurtmachi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar qiymatini 50% dan oshmasligi kerak.

6.3. «Pudratchi» tomonidan ta'mirlash ishlari belgilangan muddatlarda yakunlangandan keyin «Buyurtmachi» tomonidan to'lovlar o'z muddatida amalga oshirilmasa to'lanmagan summani 0.4%

miqdorida har bir muddati o'tgan kun uchun «Pudratchi»ga jarima to'laydi, lekin bunda jarimaning umumiy summasi o'tkazib berilmagan mablaglar summasini 50% dan oshmasligi kerak.

6.4. Jarimalar to'lanishi «Pudratchi»ni shartnomada belgilangan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

## 7. FORS-MAJOR XOLATLARI.

7.1. Agar ushbu shartnoma buyicha majburiyatlar qisman yoki to'lik bajarilmasligi tabiat xodisalari, urush, ommaviy tartibsizliklar va boshka yengib bo'lmas kuch xolatlari natijasida kelib chiqsa, tomonlar javobgarlikdan ozod etiladilar.

## 8. QO'ShIMChA ShARTLAR.

8.1. Ushbu shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo taraflarning kelishuvi bilan xal qilinadi. O'zaro kelishilmasa iqtisodiy sudi va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlar tartibda xal qilinadi.

8.2. Shartnoma taraflarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun xujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

8.3. Ushbu shartnomani amal qilish muddati 2022 yil 25 dekabrgacha. Shartnoma ikki tomonlama imzolanib, g'aznachilik boshqarmasi (bo'lim)dan ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

## 8.6. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH YO'NALISHIDA

Shartnoma tuzayotgan tomonlar hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar, korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni baholash tizimini takomillashtirish hamda tizimda halollik standartlarini joriy etish, «yashirin iqtisodiyot»ni qisqartirish hamda "Korrupsiyasiz soha" loyihalari bo'yicha amaliy ishlar ketayotganligini bir ovozdan ma'qullaydi.

Shartnomaning amal qilish davrida tomonlarda:

**Quyidagilar normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar hisoblanadi:**

- so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi;
- noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi;
- normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi.

**Quyidagilar vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar hisoblanadi:**

- diskretsion vakolatlarning kengligi;
- aniq belgilanmagan vakolatlar;
- davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi;
- davlat organi tomonidan o'zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi;
- vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi;
- kechiktirib tartibga solish;
- manfaatlar to'qnashuvi;
- afzalliklarning asossiz belgilanishi;
- normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish;
- huquq va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar.

**Quyidagilar ma'muriy tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar hisoblanadi:**

- ma'muriy tartib-taomillarning mavjud emasligi yoki to'liq emasligi;
- belgilangan qoidalardan chiquvchi istisnolarni asossiz o'rnatilishi;
- ortiqcha va asossiz talablarning o'rnatilganligi;
- vaqt chegaralarining aniq belgilanmaganligi;
- to'lov miqdorlari aniq belgilanmaganligi;
- sanksiyalarning nomutanosibligi;
- chora-tadbirlarni amalga oshirishning moliyalashtirish manbalari noaniqligi.

**Quyidagilar nazorat bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar hisoblanadi:**

- shikoyat qilish tartibining mavjud emasligi;

- shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlashdagi bo'shliqlar;
- davlat organlarining faoliyati ustidan nazorat qilishning shakllari va turlari belgilanmaganligi haqida fikr-mulohazalar, e'tiroz yoki takliflar paydo bo'lsa, bu haqda bir-birlariga yozma tartibda darhol murojaat qilib, yuzaga kelgan, kelishi mumkin bo'lgan yoki kelishi kutilayotgan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish chorasini amaldagi qonunchilikka asosan hamkorlikda ko'rishga, bartaraf etishga kelishildi.

**9. TOMONLARNI XUKUKIY MANZILI VA RYeKVIZITLARI**

| **«Pudratchi»** | **«Buyurtmachi»** |
|---|---|
| « Beshariq Ideal » x/k<br>(etkazib beruvchining (pudratchining) nomi) | Beshariq tumani maktabgacha ta'lim bo'limi<br>(buyurtmachi nomi) |
| Manzil: Beshariq tumani<br>Tel./faks +99897 949-10-05<br>(h/v yoki shg'h)<br>20208000705058860001 | Manzil: Besharik tumani Sirdaryo kuchasi № 12<br>Tel./faks ___61-21-627__<br>shg'h* 100022860302157091100251001 |
| Bank nomi «Xalq banki» Beshariq filiali<br>STIR: 306338285 MFO: 00797 | Tashkilotning STIRi 305153351<br>OKONX____97200____<br>G'aznachilik bo'linmasining nomi:<br>Besharik tuman buyicha Gaznachilik bulinmasi<br>YaG'H 23 402 000 300 100 001 010<br>Bank nomi: Markaziy bankning Toshkent shahar<br>Bosh boshqarmasi Hisob-kitob-kassa markazi (HKKM)<br>MFO:00014<br>G'aznachilik bo'linmasining STIRi:<br>201122919 |
| Rahbar_______________A.Otaxonov | Rahbari_______________Sh.Baratalieva |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT BESHARIQ IDEAL

| | Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.<br>Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang. | |
|---|---|---|
| | Imzolovchi F.I.SH. | SHOIRAXON BARATALIYEVA ALIMJANOVNA |
| | Imzolangan sana | 18.11.2022 16:16 |
| | Hujjat kodi | **EP7810602837** |
| | Hulosa kodi | **BX7038716224** |

.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, ҳужжат коди: BX7038716224

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

BX7038716224

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Beshariq tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 17.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Beshariq tumani yuridik markazi bosh yuristkonsulti:** **F.I.JO'RAYEV**

18.11.2022

**179076 лот юзасидан шаклланган дастлабки баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичида иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана: 17.11.2022 07:32

Комиссия раиси: BARATALIYEVA SHOIRAXON ALIMJANOVNA